

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarning samaradorligi reytingini  
yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha "O'zbekiston telekommunikatsiya  
tarmoqlarini boshqarish respublika markazi" davlat unitar korxonasi  
amalga oshirilgan ishlar bo'yicha  
MA'LUMOT**

**I. "O'zTTBRM" DUKda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha  
mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi va amaliyotga tatbiq etish  
borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi**

Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa avval tashkil etilgan 9 ta aloqa kanallaridan (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni va elektron manzil) foydalanib kelinmoqda. Xususan, korxonaning rasmiy web-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, elektron pochta manzili va ishonch telefonlari doimiy ish faoliyatida bo'lishi ta'minlanib kekinmoqda (1-ilovada keltirilgan).

Korxonaning rasmiy [www.rtmc.uz](http://www.rtmc.uz) web-saytida yuridik va jismoniy shaxslarning sohadagi korrupsiya holatlari haqida xabar berishlari uchun imkoniyat yaratilgan va sohadagi korrupsiya holatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan "Telegramm-bot"i ishga tushirildi ([http s://t /tt bot](http://t.me/rtmc_bot)).

Vakant lavozimlarga xodimlarni qabul qilishda "O'zTTBRM" DUKdagi bo'sh ish o'rinlari malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha korxonaning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Komissiya Nizomi talablariga qat'iy rioya qilgan holda kadrlarni qabul qilish amalga oshirilmoqda.

Korxonaning rasmiy web-sayti ([www.rtmc.uz](http://www.rtmc.uz))da ishga qabul qilish, rotatsiya to'g'risidagi e'lonlar va axborotlar doimiy ravishda joylashtirilib, yangilab borilmoqda.

Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilib, mazkur shartlar bilan qabul qilinayotgan xodimlar mehnat shartnomasida tanishtirib borilmoqda. Shuningdek, xodimlarni ishga qabul qilishda, lavozimi o'zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni to'ldirish yo'lga qo'yilgan.

Ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga nisbatan o'tkazilgan tekshiruvlar to'g'risida xulosalarni rasmiylashtirish va ularning hisobini yuritish yo'lga qo'yildi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish, ularning ta'qibga

olinmasligi kafolati Korxonaning 2021-yil 16- fevraldagi 35-son buyrug'i bilan ta'minlangan.

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalarini tahlil qilish natijasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligi aniqlanmadi.

2023- yil 1-chorak davomida jami 49 ta xo'jalik shartnomalar tuzilgan, 123 ta kontragentlar tekshirishdan o'tkazilib, ijobiy xulosalar olingan.

Korxonaning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati 2022 yil 29-dekabrda ishlab chiqilib tasdiqlangan.

## **II. "O'zTTBRM" DUK raxbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-xarakatlarining mavjudligi**

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023- yil 7-fevraldagi 16-F-son farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida Korxonada rahbariyati tomonidan respublika hududlarida o'tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish bo'yicha sayyor qabullar jadvali 2023- yil 24- fevral 9-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan.

## **III. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi**

Hisobot davrida ishga yangi qabul qilingan 7 ta xodim korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirildi.

## **IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi**

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni ro'yxatga olish ryestri yuritilishi yo'lga qo'yilgan. Hisobot davrida korrupsiyaviy holatlar bo'yicha ma'lumotlar kelib tushmadi.

Olib borilgan Monitoring natijasida korrupsiyaviy holatlarga oid xarakatlar mavjud emasligi haqida ma'lumotnoma tayyorlab borilmoqda.

2023 yil 15 fevralda, Korxonada xodimlari tomonidan korrupsiyaga xamda monopoliyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablar buzilishini oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish

va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Qo'mitasi ma'sul xodimlari ishtrokida "Raqobat to'g'risida"gi xamda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunlarning mazmuni va mohiyati" mavzusida davra suxbati o'tkazildi.

#### **V. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlar yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi**

Korxonada Nizomida ko'rsatilgan barcha funksiyalarni baholash, korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini aniqlash, bo'linmalar xatti-harakatlaridagi korrupsion omillarni minimallashtirish maqsadida korxonada tomonidan mobil qurilmalarning IMEI-kodlarini ro'yxatga olish jarayoni hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish honalari ovozni yozish imkoni bo'lgan video kuzatuv kameralari bilan jihozlangan va doimiy ravishda yozib borilishi ta'minlangan. Shu bilan birga, ularni tahlillari olib borilishi yo'lga qo'yildi.

Yuridik shaxslar bilan xizmatlarni ko'rsatish uchun tuzilayotgan shartnomalarda korrupsiyaga oid holatlarni oldini olishni nazarda tutuvchi bandlar kiritilib, mobil qurilmalarning IMEI-kodlarini ro'yxatga olish jarayonini video kuzatuvga olish tavsiya etildi.

Mobil qurilmalarni ro'yxatga olish jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida ushbu tizim yanada takomillashtirilib borilmoqda.


UZIMEI maxsus kodlarini ro'yxatga olish tizimini takomillashtirish natijasida shaxsni biometrik ko'rsatkichlari (FACE ID) asosida fuqarolarning shaxsini tasdiqlash orqali mobil qurilmalarning xalqaro identifikatsiya IMEI kodlarini ro'yxatga olish ishlari eksperiment tariqasida olib borilmoqda.

Hozirda mavjud tizimga kiritilgan qo'shimcha identifikatsiyalash jarayoni jismoniy shaxslarning pasport ma'lumotlaridan o'zga shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanish holatlarini oldini olishga qaratilgan.

Shu bilan birga identifikatsiyalash jarayoni fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlanishining, mamlakatimizga noqonuniy ravishda olib kirilgan kontrafakt mobil qurilmalarni legallashtirishga qaratilgan xarakterliklar oldi olinishiga erishiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ko'rgazmali materiallar va qisqa videoroliklar korxonaning "O'zTTBRM" DUK rasmiy web-saytlari, Telegram kanalida, Facebook va Instagram sahifalarida joylashtirilib borildi.

**Komplayens nazorati bo'yicha  
1-toifali mutaxassis**



**G.Rustamov**